



Abror KURBONMURATOV,
Toshkent davlat til va adabiyoti universiteti doktoranti
E-mail: kurbonmuratov@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent A.Orifjonov taqrizi asosida

LINGVISTIK EKSPERTIZADA “EKSTREMISTIK MATN” KATEGORIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvistik ekspertizada “ekstremistik matn” kategoriyasi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqolada sud tilshunosligi bilan bog‘liq dolzarb muammolar muhokama qilinadi. Yuridik tilshunoslik keyingi yillarda jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan amaliy tilshunoslikning bir sohasi. Lingvistik ekspertiza esa mana shu sohaga kiruvchi asosiy yo‘nalish sanaladi. Lingvistik ekspertiza sud-ekspertizasining bir tarmog‘i sifatida faoliyat yuritib, turli konfliktli matnlarga izoh berish va sharhlash, mavhumliklarga oydinlik kiritish funksiyasini bajaradi. Albatta, lingvistik ekspertizaning vazifasini faqat shu bilangina chegaralab bo‘lmaydi. Jahon olimlari tomonidan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari yuridik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan turlicha asoslanadi.

Kalit so‘zlar: lingvistika, ekspertiza, ekstremistik matn, jinoyatchining psixologik portreti, sud lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik.

КАТЕГОРИЯ «ЭКСТРЕМИСТСКИЙ ТЕКСТ» В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ

Аннотация

В данной статье говорится о категории «экстремистский текст» в лингвистической экспертизе. В статье также рассматриваются актуальные проблемы, связанные с судебной лингвистикой. Юридическая лингвистика – это область прикладной лингвистики, бурно развивающаяся в последние годы. Лингвистическая экспертиза считается основным направлением этой области. Лингвистическая экспертиза функционирует как отрасль судебной экспертизы, дающая разъяснения и толкования различных противоречащих друг другу текстов, уточняющая абстракции. Конечно, этим задача лингвистической экспертизы не может ограничиваться. Составляющие лингвистической экспертизы мировыми учеными опираются на разные правовые и лингвистические точки зренияя.

Ключевые слова: лингвистика, экспертиза, экстремистский текст, психологический портрет преступника, судебная лингвистика, современная лингвистика.

THE CATEGORY OF "EXTREMIST TEXT" IN LINGUISTIC EXPERTISE

Annotation

This article talks about the category of "extremist text" in linguistic expertise. The article also discusses current problems related to forensic linguistics. Legal linguistics is a field of applied linguistics that is rapidly developing in recent years. Linguistic expertise is considered the main direction of this field. Linguistic expertise functions as a branch of forensic expertise, providing explanations and interpretations to various conflicting texts, clarifying abstractions. Of course, the task of linguistic expertise cannot be limited to this. The components of linguistic examination by world scientists are based on different legal and linguistic points of view.

Key words: linguistics, expertise, extremist text, psychological portrait of a criminal, forensic linguistics, modern linguistics.

Kirish. Ilm-fanning taraqqiyoti natijasida boshqa sohalar qatori tilshunoslikka ham yangicha nuqtayi nazardan qarala boshlandi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy tilshunoslik sohalarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Endilikda zamonaviy tilshunoslikning qator sohaları shakllanib, taraqqiyot bosqichiga ko‘tarila bordi. Tilning amaliy funksiyasi fanning turli tarmoqlarida keng ishlay boshladi. Yuqoridagi omillar qator tadqiqotlarning yaratilishiga omil bo‘ldi.

Insoniyat taraqqiyotining har bir davri ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, falsafiy qonuniyat va holatlardan kelib chiqqan holda ilmiy tafakkur darajasi va xususiyatlarini belgilaydi. Bu bevosita tafakkur mahsuli bo‘lgan fanlar va ularning rivojlanish tendensiyalarida o‘z ifodasini topadi. Tadqiqotchining dunyoqarashi, o‘rganish obyektiga doir muammolarni belgilashi va ularning yechimiga munosabati, tanlangan tadqiq metodologiyasi va metodikasi masalalari umumiy ilmiy tafakkur darajasi va xususiyatlari bilan bog‘liq. Fanlar tarixidan ma‘lumki, an‘anaviy ilmiy tafakkur provinsial cheklanganligi, dogmatikligi, konservativligi, umrini o‘tab bo‘lgan qat‘iyatlarga muteligi bilan xarakterlanib, uning bu

sifatlari o‘rganish obyektining to‘la ma‘nodagi dolzarb muammolarini tushunib yetishiga to‘siq bo‘ladi. An‘anaviy tafakkur egasi obyektini taraqqiyotning mintaqaviy va global masalalari bilan yaxlitlikda idrok eta olmaydi, jamiyat va o‘rganish obyektining taraqqiyot tendensiyalarini anglab yetmaydi, fanning dolzarb vazifalarini ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib belgilashga ojizlik qiladi. Natijada fanning o‘zi o‘z taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib qoladi. Umuman olganda, an‘anaviy tafakkur jamiyat taraqqiyoti darajasidan orqada qolib, unga to‘sqinlik qila boshlaydi. Bu fanning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yishi uchun muhim shart. Fanni yangi bosqichga olib chiqish yangi ilmiy maktablar zimmasiga tushadi. Ko‘rinadiki, fandagi turg‘unlik unda yangi ilmiy maktablar shakllanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi kunga kelib fan va texnikaning jadal rivojlanishi fanlararo integratsiyaning kuchayishi fan tarmoqlarida o‘zaro ta‘sir, muammo va masalalar yechimida hamkorlikning yuzaga kelishiga omil bo‘ldi. Jamiyatda ijtimoiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi, fanlararo aloqalarning rivojlanishi, xususan, til va huquq fanlarining bir-birini taqozo qilishi, yuridik materiallarni til nuqtayi nazaridan tadqiq

qilishga ehtiyoj yangi yo'nalish-lingvistik ekspertizaning shakllanishiga olib keldi. Bu yo'nalish esa o'z navbatida grafologiya, ya'ni yozuv xususiyatlari yodamida inson shaxsini aniqlash sohasi bilan uzviylikda rivojlanib bormoqda.

Ekstremistik matnni tahlil qilishda va sud lingvistik ekspertizasi grafologiyaning roli o'ta muhimdir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvoh shaxsini aniqlab berish va noma'lum jinoyatchining psixologik portretini chizishda ekspertlar, asosan, grafologiya elementlari va aniqlash usullaridan foydalanadi. Bir qator rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Rossiya, Germaniya va Fransiyada grafologiya boshqa fan tarmoqlari kabi jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda ham sud-huquq tizimida ushbu sohadan unumli foydalanib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Grachev M.A. talqinida esa lingvistik ekspertiza alohida turgan ajratilgan har xil turdagi tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek materialshunoslik deb bilan ish ko'radigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri. Biroq, yana bir nuqtai nazar E.I.Galyashina va E.R.Rossinskayaning so'zlariga ko'ra, lingvistik ekspertiza - bu nutq tekshiruvlari sinfiga kiruvchiga ekspertizaning alohida turi. Germaniyalik olim Jurgen Handkie fikrlariga ko'ra, lingvistik ekspertizada ikki muhim omil mavjud:

- Ovozli xabarlar identifikatsiyasi;
- Yuridik matnlar identifikatsiyasi;

Birinchi turda olim ovoznining fonetik xususiyatlari, ovoz tempi va uzunligi kabilarga e'tibor qaratish lozimligiga urg'u bersa, yuridik matnlar identifikatsiyasida o'z joniga qasd qilishga qaratilgan xatlar, talab shakldagi so'rovnomalar matnlari, e-mail xabarlarini ajratib ko'rsatadi. I.K.Brinyev fikriga ko'ra yuridik tilshunoslikda lingvistik ekspertizani turlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhimi sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. L.V.Azhnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini ko'rsatadi:

Birinchidan, bu ommaviy axborot vositalarida yoki boshqa biron bir yo'nalishda nashr etilgan ommaviy matnlar (raqamli va bosma ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie va radio matnlari dasturlar, og'zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarni iste'molchilar uchun ma'lumot va xizmatlar, firma nomlari va boshqalar). Bunda til huquqiy tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi.

Ikkinchidan, sotsial munosabatlarni tartibga solish bo'yicha lingvistik ekspertiza. Bunda turli normativ-huquqiy hujjatlar, shaxsiy yozishmalar asosiy obyekt bo'lib xizmat qiladi.

L.V.Azhnyuk tomonidan belgilangan tarkibiy qismlar boshqa olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan mulohazalarga nisbatan solishtirganda umumiyroq xarakter kasb etadi. Olim ikki turga ajratishda asosiy xususiyatlarga tayanadi va shunga ko'ra bo'linishni ma'qul topadi.

Anatoliy Baranov tomonidan taklif etilgan lingvistik ekspertiza tarkibiy qismlari esa tashkil etish shakliga ko'ra ajratilgan deyish mumkin.

- rasmiy ekspertiza (sudning talabiga binoan amalga oshiriladi va u yuridik maqomga ega;
- tashabbus ekspertizasi (har qanday manfaatdorning talabiga binoan amalga oshiriladi (jismoniy yoki yuridik shaxs).

Ko'rinadiki, bunda muallif lingvistik ekspertizaning asosiy parametrlariga urg'u berib o'tadi. Har doim ham lingvistik ekspertiza o'tkazishga ehtiyoj tug'ilmaydi. Sud jarayonida ayblanuvchi, gumondor, guvoh ko'rsatmalari, mavjud dalillar tahliliga asosan mavjud qonun hujjatlariga ko'ra sud hukmi chiqariladi. Biroq shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda nafaqat mavjud qonun hujjatlari, yuridik bilimlar, balki maxsus lingvistik bilimlarga ham ehtiyoj tug'iladi. Xususan, haqorat va obro'sizlantirish, mansabdor

shaxs mavqeyiga putur yetkazish kabi ayblovlar; yoki turli ko'rinishdagi anonim xatlar va yozma matnlar avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritish kabi holatlarda lingvistik ekspertizaning bilimi va tajribasiga ehtiyoj tug'iladi.

Yuqorida keltirilgan A.N.Baranov ajratgan lingvistik ekspertizaning birinchi ko'rinishi ayni shu va shu singari vaziyatlarda tayinlanadi. Yuridik va filologiya fanlari doktori, O.E.Kutafina nomidagi Moskva davlat universiteti professori E.I.Galyashina lingvistik ekspertizada lingvistik va huquqiy jihatlarni farqlash, ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi, metod va metodologiya masalasi yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirgan. Xususan, o'z tadqiqotlarida lingvistik ekspertizaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

- Sarlavha matnlarining lingvistik ekspertizasi(nomlash bo'yicha);
- Normativ-huquqiy hujjat va aktlarning lingvistik ekspertizasi;
- Ommaviy axborot vositalari matnlari va tashviqot materiallari, xatlar, manzillar lingvistik ekspertizasi;
- Fan, adabiyot va san'at asarlarini lingvistik ekspertizasi;
- Har qanday nutq materialining lingvistik ekspertizasi.

Lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayonining tarkibiy qismlari keyinchalik yana takomillashtirildi. Ushbu qatorga reklama matnlari lingvistik ekspertizasi; og'zaki va yozma nutqning lingvistik ekspertizasi, birlashtirilgan savdo belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari; ekstremistik materiallarning lingvistik ekspertizasi kiritildi.

O'zbek lingvistik ekspertologiyasiga ham hozirgi kunda e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz huquq-tartibot, sud-prokuratura tizimida har yili 500 tagacha og'zaki yoki yozma matn lingvistik ekspertiza qilinadi. U, asosan, xorijiy tillar metodologiyasi asosida amalga oshirib kelinadi. Milliy lingvistik ekspertiza metodologiyasini yaratish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga buyurtma qilindi. Shu asosda universitet professori, filologiya fanlari doktori Baxtiyor Mengliyev tomonidan muammo ilmiy tadqiqotlar uchun tizimlashtirildi va nazariy hamda amaliy tadqiqotlar mavzulari banki yaratildi. Shu asosda olim rahbarligida "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi" (D.To'rayeva, 2022), "O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari" (K.Musulmonova, 2022), "Ilmiy matndagi sodda darak gaplarning mazmuniy o'xshashligi va lingvistik modellari" (A.Murtazoyev, 2022), "Lingvistik ekspertiza uchun anonim matnlardagi noadabiy birliklarning shaxs yoshiga xoslanishini aniqlash" (S.Yoqubova, 2022) "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari" (G.Hotamova, 2022), "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning gender xoslanishi" (O.Xudoyberdiyeva, 2022), mavzusida falsafa doktori darajasidagi dissertatsiyalar bajarildi va boshqa qator ishlar amalga oshirilmogda. "Amaliy filologiya" universitetida ochilgan bakalavr yo'nalishida lingvistik ekspertiza bo'yicha bir nechta fandan mashg'ulotlar olib borilmogda. Shuningdek, 2023-yilda lingvistik ekspertiza bo'yicha kompetentli kadrlar tayyorlash uchun "Lingvistik ekspertologiya" magistratura mutaxassisligini ochish rejalashtirilmogda.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatda ijtimoiy fanlarning o'zaro bog'liqligi, fanlararo aloqalarning rivojlanishi, xususan, til va huquq fanlarining bir-birini taqozo qilishi, yuridik materiallarni til nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga ehtiyoj yangi yo'nalish-lingvistik ekspertizaning shakllanishiga olib keldi. Bu yo'nalish esa o'z navbatida grafologiya, ya'ni yozuv xususiyatlari yodamida inson shaxsini aniqlash sohasi bilan uzviylikda rivojlanib bormogda.

Tahlil va natijalar. Inson yozganda uning individualligi har bir harf shaklida namoyon bo'ladi, chunki tana a'zolarini, shu jumladan, qo'lni miya va markaziy nerv tizimi boshqaradi. Natijada, yozish uslubi va shakliy belgilari genetik jihatdan aniqlangan shaxs turini ko'rsatadi. Insonning psixologik portretini chizish uchun grafologlar uch asosiy yo'nalishdan foydalanadilar:

- umumiy fiziologik (qoida tariqasida, psixologik holat o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi:

hayajonlanish, charchoq, uyquchanlik);

- anatomik (qo'lning tuzilish xususiyatlari, o'naqay va chapaqayligi, ko'rish);

- psixologik (asab tizimining holati, inson muhiti, o'rganish).

Grafologik tadqiqotlarda quyidagilar aniqlanadi: yozma matnda harflarning kattaligi, harflarning qiyaligi, yozuv izchilligi, tezligi (harflar orasidagi masofa), murakkabligi (soddalashtirilgan, ya'ni yozma belgilarning alohida elementlarini yo'qotish; murakkab, ya'ni qo'shimcha elementlarning yozma belgilarida mavjudligi), bosim kuchi. Bunday tashqari, yozuv harakatining yo'nalishi, harakatlarning nisbati, harakatlarning lokalizatsiyasi (harakat qayerdan boshlanib, qayerda tugashi, bosim kuchi va harakat tezligi), so'zlarning chastotasi, bo'shliqning mavjudligi va yozuvning boshqa xususiyatlari aniqlanadi.

Tadqiq etilayotgan hujjat jinoiy ishni ochish uchun muhim vosita, ya'ni jinoyat sodir etilgan obyekt haqida ma'lumot berishi kerak (masalan, tuhmat mazmunidagi yozuv yoki terroristik harakatni sodir etganligi to'g'risida yolg'on xabar berilgan anonim yozuv); jinoiy hujjmlar bilan bog'liq bo'lgan narsalar (masalan, muhim moliyaviy hujjatlar); jinoyatni ochish va jinoiy ishning holatini aniqlash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar (masalan, buxgalteriya hujjatlari yordamida davlat budjetiga soliqlarni to'lamaganlik faktlari). Grafologik ekspertiza natijalari jinoiy ishni ochib berishda va jinoyatchining shaxsiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, yozuv orqali «shaxsning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, ba'zi bir kasbiy mahorat, moyillik, irodaviy fazilatlar, hissiy ta'sirchanligi, ba'zan hatto ijodkorlik, shuningdek, ruhiy me'yordan chetga chiqishi aniqlanadi. Ular qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar va jinoyatchilarning qo'l yozuvlarini taqqoslashni shaxsning jinoiy yo'nalishini aniqlashda asosiy vosita deb bilishi bejizga emas».

XIX asr nemis tadqiqotchisi I.H.Groman esa qo'lyozma matnlari orqali "bo'yni, yoshni, ovozni, ko'z va sochlarning rangini va hattoki yonoqlarning qizarishini ham aniqlash mumkin" degan fikrni ilgari surdi. Zamonaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlarga qaramay, biz ushbu sohada yetarli ishlar amalga oshirilgan deya olmaymiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'lyozma matnlari bilan har xil deviant xulq-atvorni aniqlash mumkin, unga rus tadqiqotchisi V.N.Obrazsov: "Qotillarning qo'lyozmasi bosim zarbinning kuchligi bilan ieroglif yozuviga o'xshash bo'lishi mumkin - deb ta'kidlagan.

U qat'iylik, ishonchni kuchaytirganda, hayajon va yozish tezligini egallaydi, chiziqlar uzunlikka yopishadi, so'zlar qo'shilmaydi. Harflar kerak bo'lgandan ancha kattaroq, ba'zan keraksiz darajada ulkan hajmga ega bo'ladi. Chiziqlar yo'nalishi bir tartibda bo'lmaydi"

Hozirgi kunda qo'lyozma matnlari vositasida matn muallifiga doir quyidagi ma'lumotlarni aniqlash kabi masalalar zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda:

- qo'lyozma matni muallifining yoshini aniqlash;

- qo'lyozma matni muallifining jinsini aniqlash;

- qo'lyozma matni muallifining qaysi hududga mansubligini aniqlash;

- qo'lyozma matni muallifining kasbi va xarakter xususiyatlarini aniqlash.

Lingvistik ekspertizada ushbu yo'nalishlar bo'yicha inson shaxsini aniqlash va uning til xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi ishonchli metodologiya ishlab chiqilmagan. Hozirgi kunda ekspertlarimiz jinoyat obyektini sifatida keltirilgan matndagi harf shakllarining ko'rinishi, qanday bosim ostida yozilgani va avvalgi yozgan dastxatlariga qarab, ma'lum intuitsiyaga asoslangan holda gumonlanuvchi shaxsning taxminiy portretini yaratishga harakat qilganlar. Holbuki, jahon tilshunosligida, xususan, Yevropa va AQSHda yozuv xususiyatlari bilan bir qatorda uning leksik-semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ham urg'u beriladi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab ushbu sohaga e'tibor kuchayib, buning natijasi o'laroq matnning grafologik tahlil qilish uchun kompyuter dasturlari ishlab chiqila boshlandi (bu ishlar O'zbekistonda ham yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda). Isroilda esa grafologik usul davlat xizmatiga nomzodlar uchun majburiy test turlaridan biriga aylangan. Bu esa grafologiyaning jamiyatdagi o'rni naqadar muhimligi va inson shaxsini, uning individual xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi asosiy vosita ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Turli ko'rinishdagi matnlarni ekspertiza qilish jarayoni o'zigaxos bosqichlarni qamrab olib, bu jarayon lingvistik tahlildan tamoman farq qiladi. Mavjud nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etilib, ekspert tomonidan umumlashmalar hosil qilinadi. Har qanday matn ham lingvistik ekspertiza o'tkazish obyektini bo'la olmaydi. Qo'lyozma matnlari lingvistik ekspertizasida muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo'lyozma matnlari kriminolaistik tadqiqotida yozma nutqning umumiy va xususiy alomatlari ajralib turadi. Umumiy alomatlar nutq muallifining leksik, grammatik, stilistik imkoniyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Xususiy alomatlardan adabiy unsurlar, ortiqcha so'zlar, iboralarni noto'g'ri ishlatish, so'zlar takrori, leksik so'z boyligi yetishmasligi kabi elementlar uchraydi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiy jihatlarni ochishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkin, grafologik tadqiqotlarni lingvistik ekspertizaning asosiy bo'lagi deb qarash, uni amaliyotga joriy etish va bu orqali o'zbek tilshunosligida uning nazariy asoslarini mukammal ishlab chiqish amaliy tilshunoslik oldida turgan asosiy masalalardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Asl mohiyat, eng avvalo, mukammal bilim va ko'nikma amaliy tajribalar asosida yuzaga keladi. Amaliy tadqiqotlarda aniqlangan dalillar nazariy tilshunoslik (fan) yadrosiga kiritilmagan. Zero, amaliy va nazariy sohalarining har xilligiga qaramasdan, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Amaliy tilshunoslikning bir bo'lagi hisoblangan lingvistik ekspertizada grafologik tadqiqotlarning rivojlanishi va uning sud-huquq tizimida samarali natija berishi o'rganilayotgan shaxsning nafaqat psixologik portretini, balki uning yozma nutqiga xos lingvistik: grammatik, lingvistik-semantik, dialektologik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash orqali ushbu shaxs haqida to'liq ma'lumot berish imkonini yaratadi. Endilikda yuqori tajriba, bilim va malakalarga ega lingvist-ekspertlarni tayyorlash, ularning malakalarini oshirish mexanizmini ishlab chiqish lingvistik ekspertizaning dolzarb masalalaridan biri. Zero, lingvist-ekspert oldida qat'iy vazifalar va mas'uliyatli burch turadi. Lingvist-ekspert chuqur lingvistik, psixologik va yuridik bilimlarga ega mutaxassis bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ажнюк Л.В. Типология об'єктів лінгвістичної експертизи і методикаїх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6
2. Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minority as a science.//Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n. a. N. A. Lobachevsky. – 2010. – No. 4 (2). – S. 499.
3. Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – М.: Stance, 2003
4. Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview. https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds.-2014Federal state standard of higher professional education in the direction of training (specialty) 031003 forensics (qualification (degree) specialist) (as amended by the order of the Ministry of education and science of the Russian Federation dated 31.05.2011 No. 1975)
5. Алесковский С.Ю., Комиссарова Я.В. Основы графологии. – М.: Юрлитинформ, 2006.
6. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза : монография / К. И. Бринев ; под редакцией Н. Д. Голева. Барнаул : АлтГПА, 2009. С. 32.
7. Кошманов П.М., Кошманов М.П. Признаки почерка в экспертнокриминалистическом исследовании: учеб. пособие. Волгоград, 2004.
8. Михель Л. Сравнительное исследование почерков / Пер. Л.А. Филимоновой. Переводч. Группа КЮМО. М., 1982.
9. Наджимов О. Как узнать характер человека по его подписи: учебное пособие. М., 2001
10. Лесовская Т.В. Особенности письма больных шизофренией: Автореф. дисс. ... канд. медиц. наук. М., 1977.
11. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теоретические основания и практика / Анатолий Николаевич Баранов. – М. : Наука, 2007. –592 с.
12. Edylova Merey, Baysalov Aly Dzhumamuratovich. Classification features of linguistic expertise and her tasks. Sciences of law. European sciences rewiev. 2015.11.06
13. Podkatilina M. L. Forensic linguistic examination of extremist materials. – М.: Writeport, 2013.